



ENSURING PUBLIC SAFETY. PROBLEMS AND SOLUTIONS

Zuhriddin Muhammadaliyev

*Independent researcher of the University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan
Uzbekistan, Tashkent*

ABOUT ARTICLE

Key words: maintaining public order, ensuring public safety, National Guard bodies, issues of administrative responsibility.

Received: 27.03.25

Accepted: 29.03.25

Published: 31.03.25

Abstract: This article analyzes the concept of public order and security, the legal and organisational basis of its maintenance, offer and recommendations for improving the provision of public security. Furthermore, the result of the reforms implemented in this direction were scientifically analyzed, and opinions and comments were expressed about its role in society and life.

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH. MUAMMO VA YECHIMLAR

Zuxriddin Muxammadaliyev

*Mustaqil izlanuvchisi
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
O'zbekiston, Toshkent*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash, Milliy gvardiya organlari, ma'muriy javobgarlik masalalari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamoat tartibi va xavfsizligi tushunchasi, uni ta'minlashning huquqiy va tashkiliy asoslari tahlil qilinib, jamoat xavfsizligini ta'minlashni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan. Shuningdek, ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarning natijalari ilmiy tahlil qilinib, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni bo'yicha fikr va muloxazalar bildirib o'tilgan.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ. ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Зухриддин Мухаммадалиев

*Независимый исследователь Университета общественной безопасности Республики Узбекистан.
Узбекистан, Ташкент*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	охрана общественного порядка, обеспечение общественной безопасности, органы национальной гвардии, вопросы административной ответственности.	Аннотация:	В данной статье анализируется понятие общественного порядка и безопасности, правовые и организационные основы его обеспечения, предложения и рекомендации по совершенствованию обеспечения общественной безопасности. Также были научно проанализированы результаты реформ, осуществленных в этом направлении, и высказаны мнения и комментарии о его роли в обществе и жизни.
------------------------	---	-------------------	--

KIRISH

“Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi ishlarni “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas’ul davlat tuzilmalariga o‘z faoliyatini “Barcha sa’y-harakatlar inson qadri uchun” degan ustuvor g‘oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoda”¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli kuchlar Oliy bosh qo‘mondoni Sh.M.Mirziyoev rahbarligida jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash va eng muximi xalqimizning farovon turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. 2021 yil 29 noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 27-sonli Farmonining qabul qilinishi ham jamoat xavfsizligini ta’minlash davlat siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etayotganini anglatadi. Farmonda Jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlar sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari ko‘rsatilgan.

Xo‘sh, Jamoat xavfsizligining o‘zi nima?

Farmonga asosan, Jamoat xavfsizligi-bu jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati

xisoblanadi hamda jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi, insonning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi. Ana shu tarifning o'zi ham jamoat xavfsizligini ta'minlash naqadar zarur ekanligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Yuridik ensiklopediyasida Jamoat xavfsizligiga quyidagicha tarif berilgan. "Jamoat xavfsizligi-shaxs, jamiyat va davlatning jinoyatchilik, boshqa huquqqa xilof harakatlar, favqulotda holatlar oqibatlar, ijtimoiy nizolar, tabiiy ofatlar, epidemiya, yirik holatlar avariya, shuningdek yong'inlarda himoyalanganlik holatini ifodalash maqsadida qo'llaniladigan tushuncha"²

Jamoat xavfsizligi qay tartibda ta'minlanadi?

Jamoat xavfsizligini ta'minlash-davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim orqali amalga shiriladi. Bu o'rinda jamoat xavfsizligi va jamoat tartibi tushunchalarini bir-biridan ayri xolda tasavvur etib bo'lmaydi.

Tahlillar natijasi «jamoat tartibi» tushunchasiga biron-bir hujjatda ta'rif berilmaganini ko'rsatadi. Bu borada ayrim tadqiqotlarda «Jamoat tartibi – bu jamoat xavfsizligi, jismoniy va yuridik shaxslarning normal faoliyat ko'rsatishi, mehnat qilishi va dam olishi uchun sharoit yaratishga, sha'ni, qadr-qimmatini hamda umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilishga yo'naltirilgan huquqiy va ijtimoiy-axloqiy normalar asosida jamoat joylarida yuzaga keladigan va rivojlanadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi»³ deb ta'riflangan. O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash uchun bir qator huquqiy hujjatlar qabul qilinib, kuchga kirmoqda, bularga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 iyun kunidagi "Toshkent shahrida jamoat tartibini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 3786-sonli qarori, 2018 yil 24 dekabr kunidagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4075-sonli qarori, 2018 yil 19 iyun kunidagi "Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi 3528-sonli qarori, 2021 yil 2 aprel kunidagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 5050-sonli qarori, 2021 yil 26 mart kunidagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6196-sonli farmoni, 2021 yil 15 aprel kunidagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5077-sonli qarori, O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 29 iyul kunidagi “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi

205-sonli qarori va boshqa qator hujjatlarni misol keltirish mumkin. Ushbu va boshqa normativ huquqiy hujjatlarda jamoat xavfsizligini ta‘minlovchi subyektlarga bir qator huquq va majburiyatlar yuklangan. Jumladan,

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasida:

-jamoat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan maqsadli idoraviy dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

-jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklarga chek qo‘yish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshiradi;

-o‘ziga birlashtirilgan jamoat joylarida, shu jumladan Toshkent, Nukus shaharlari va viloyatlar markazlaridagi ommaviy tadbirlarda, istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etadi;

-vakolati doirasida favqulodda vaziyatlarda va favqulodda holat e‘lon qilingan hududlarda jamoat xavfsizligini ta‘minlaydi;

-terrorchilikka qarshi operatsiyalarni o‘tkazishda vakolatli davlat idoralari bilan hamkorlikda ishtirok etadi;

-davlat obyektlarini, o‘ta muhim, toifalangan obyektlarni hamda boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo‘riqlaydi;

-qo‘riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiradi;

-jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasida ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy ishlarni amalga oshirishi belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish Milliy gvardiyaga yuklatilgan. Bu huquq O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 18 noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi 647-sonli va 2022 yil 15 iyun kunidagi “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi 778-sonli Qonunida ham o‘z aksini topgan. Jamoat xavfsizligini ta‘minlashda qo‘riqlash faoliyatini ko‘rsatish alohida o‘ringa ega. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasi jismoniy va yuridik shaxslarga qo‘riqlash xizmatini ko‘rsatish jarayonida ham jamoat xavfsizligini ta‘minlash, ham shartnomaviy munosabatlar bo‘yicha qo‘riqlanadigan obyekt yaxlitligini ta‘minlash, o‘g‘irlik va boshqa jinoyatlardan himoya qilish majburiyatini oladi.

Muhokama va natijalar

Jamoat xavfsizligi va tartibini ta‘minlash jarayonida huquqni muxofaza qiluvchi organlar tomonidan ma‘muriy ta‘sir choralari qo‘llash orqali ushbu huquqbuzarlik jinoyatga aylanib ketishining oldini olish maqsad qilib qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksi” 2-moddasida fuqarolarni ma‘muriy javobgarlikka tortishdan maqsad “inson va jamiyat farovonligi yo‘lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilishni, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta‘minlashni, ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarning o‘z vaqtida va obyektiv ko‘rib chiqilishini, shuningdek bunday huquqbuzarliklarning oldini olishni, fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi”-deb belgilangan.⁴

Faqatgina “tegishli vakolat berilgan organlar va mansabdor shaxslar ma‘muriy ta‘sir ko‘rsatish choralari o‘z vakolatlari doirasida qo‘llaydilar”.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi “Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi”ning 2481-moddasiga asosan 5 ta modda bo‘yicha (61 (oz miqdorda talon-taroj qilish); 1851 (Pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi); 1941 (O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchisining (xodimining) qonuniy talablarini bajarmaslik);

195 (O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilarining (xodimlarining) o‘z xizmat burchlarini bajarishlariga qarshilik ko‘rsatish);

196 (Huquqbuzarlik sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va ichki ishlar organlarining yozma taqdimnomalarini bajarish choralari ko‘rmaslik); va 2101 (O‘ta muhim va toifalangan obyektlarga kirish-chiqish rejimini buzish yoki ushbu obyektlarning qo‘riqlanishini ta‘minlashga doir majburiyatlarni bajarmaslik)-moddalarida nazarda tutilgan ma‘muriy huquqbuzarliklarni aniqlagan taqdirda, ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzadilar. Bugungi Yangi O‘zbekistonda Milliy gvardiyaning o‘rni va fuqarolar xavfsizligini ta‘minlashdagi roli kundan-kunga ortib bormoqda. Jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi huquqbuzarliklarning aniq soni belgilanmagan va huquqni muxofaza qiluvchi organlar o‘rtasida taqsimlanmagan, O‘zbekiston Respublikasining Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi “2022 — 2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi” 55-bandida “Milliy gvardiya va ichki ishlar organlari jamoat tartibini saqlashga mas‘ul bo‘linmalarining huquqbuzarliklarni aniqlash va ma‘muriy jazo choralari qo‘llash vakolatini kengaytirish”⁵ vazifasi qo‘yilgan. Aynan shu va Milliy gvardiyaning jamoat tartibini saqlash sohasida o‘rni oshib borayotganligi unga yangi ma‘muriy ta‘sir choralari qo‘llash vakolatini berish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki bugungi davrda jamoat xavfsizligini ta‘minlash, fuqarolar va huquqni muxofaza qiluvchi organlar o‘rtasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga solish va huquq-tarbot organlariga jamoat xavfsizligi sohasida fuqarolarni ma‘muriy

javobgarlikka tortish vakolatini kengaytirish orqali, ushbu huquqbuzarliklar jinoyatga aylanib ketishining erta oldini olingan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 27-sonli Farmoni. 2021 yil 29 noyabr. 1-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasining Yuridik ensiklopediyasi. 2012.
3. Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta‘minlash faoliyati: Darslik / I. Ismailov, M.Z. Ziedullaev, F.N. Shukurov va boshq. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019.
4. “O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi” kodeksi. 1994.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 27-sonli Farmoni. 2021 yil 29 noyabr. 11-bet.
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023.